

Baliqchi tumani hokimligi faoliyatiga oid foydalanilishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklangan ma'lumotlar

RO'YXAT

Quyidagi ma'lumotlardan foydalanish va ularni tarqatish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq cheklangan:

1. Jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlariga oid axborot.
2. Jismoniy shaxsning shaxsiy hayoti to'g'risidagi, shuningdek uning shaxsiy hayoti sirini oshkor etuvchi axborot (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).
3. Axborot manbai yoki taxallus bilan imzo chekkan muallif to'g'risidagi ma'lumotlar (qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno).
4. Yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, telegraf xabarlar hamda telekommunikatsiya tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa xabarlar siri to'g'risidagi ma'lumotlar.
5. Qonun hujjatlariga muvofiq axborot olish cheklangan tergov va sud yurituvchi siri hisoblangan ma'lumotlar.
6. Axborot egasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanilishi cheklangan xizmatga oid ma'lumotlar.
7. Qonun hujjatlariga muvofiq foydalanilishi cheklangan tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar.
8. Bank siri, sug'urta siri, vasiyat siri hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar.
9. Kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, foydalanilishi cheklangan ma'lumotlar (vrachlik siri, notarial harakatlar siri, advokatlik siri va boshqalar).
10. Ular haqidagi ma'lumotlar rasmiy ravishda e'lon qilingunga qadar ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasi mohiyatiga oid ma'lumotlar.

Mazkur ro'yxat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq shakllantirilgan bo'lib, **Baliqchi tumani hokimligi** faoliyatiga oid foydalanilishi cheklangan axborot turlarini belgilaydi.